



MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDAGI TA'LIMYI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Yunusov I.K.

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti v.b

Tayanch so'zlar: metodika, nutq o'stirish, pedagogik qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish, muloqot.
Ключевые слова: методика, речевое развитие, педагогическое сопровождение, развитие, общение.

Key words: methodology, speech development, pedagogical support, development, communication.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha talim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlardagi ta'limiy faoliyat, til va nutq markazida ta'limiy faoliyatni tashkil etish va jihozlash, qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida ta'limiy faoliyatni tashkil etish va jixozlash haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассмотрена образовательная деятельность в центрах развития в дошкольных образовательных организациях, организация и оборудование образовательной деятельности в лингворечевом центре, организация и оборудование образовательной деятельности в центре строительства и математики.

SUMMARY:

In this article, educational activities in developmental centers in pre-school educational organizations, organization and equipment of educational activities in the language and speech center, organization and equipment of educational activities in the center of construction and construction and mathematics.

So'nggi yillarda maktabgacha yoshda va inson hayoti davomida nutqni o'zlashtirish masalalarini o'rganish ishlari jadallashgan. Chunki til odamlar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, ularning fikrlari, hissiyotlari va intilishlarini ifoda etish, fikrlarni shakllantirish vositasidir. Ushbu vosita qanchalik mukammal bo'lsa, insonning o'qitilishi va aqliy rivojlanishi yanada muvaffaqiyatli bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabda o'qish uchun nutqqa tayyorligini shakllantirishda aynan nutq o'stirish ta'limiy faoliyatlari davomida



o'rganiladigan bolalar adabiyoti namunalari, xalq ertak va rivoyatlari va she'rlarning tizimli o'rganilishi katta ahamiyatga ega.

Nutqni rivojlantirish muammosi quyidagi faoliyat turlarida hal qilinadi: o'yin, o'quv va bilim. O'yin faoliyati maktabgacha yoshda etakchi faoliyatdir. O'yin paytida bola bilimlarni to'playdi, ona tilini o'rganadi, muloqot qiladi, fikrlaydi va tasavvurini rivojlantiradi, ammo ta'limiy topshiriqlar o'yin muhitida olib borilsa, bolaning bilish kompetensiyalari yanada rivojlanadi. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning faol nutqiy ko'nikmalari muvaffaqiyatli shakllantirilsa, bolalarning nutqiy kompetensiyalarini optimal vositalar orqali rivojlantirish bo'yicha samarali usullarni yaratish ehtiyoji vujudga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabda o'qishga nutqiy tayyorgarligini shakllantirish samaradorligini ta'minlaydigan asosiy pedagogik shartlarga quyidagilar kiradi:

- maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish (xotira, aqliy operatsiyalar xususiyatlari: taqqoslash, umumlashtirish, xulosa qilish; tasavvur; e'tibor);

- o'rganilayotgan badiiy asarlarni anglashi, tasvirlashi, hikoya qilishi, yod aytishi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya mazmunini milliylashtirish, ya'ni o'zimizning boy o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, badiiy asarlarimiz vositasida amalga oshiriladigan ta'limiy muhit yuzaga kelganligining mohiyati beqiyosdir. Ushbu rivojlanish tendensiyasi ta'limtarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqozo qiladi. Xuddi shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda zamonaviy usul va uslublarni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifadir.

Maktabgacha ta'lim sohasida bolalarning nutqini o'stirishda bolalar adabiyoti bilan tanishtirish va yangi pedagogik texnologiyalar asosida hikoya qilish, so'zlash va she'riy asarlarni yodlashga o'rgatish bo'yicha yangi ilmiy asoslangan amaliy metodikalarni jarayonga tatbiq etish muhim vazifamizdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning nutqiy faolligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Sababi bir qator kompetensiyalar qatorida nutq va muloqot ko'nikmalari rivojlangan bolagina maktab ta'limiga tayyor hisoblanadi.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantiruvchi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ishlar Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uch yoshdan boshlab, koreys va ingliz tillarida o'qish va yozishni o'rganadilar. Shu yoshdan boshlab bolalarda ravon so'zlash,



nutq qo‘nikmalarini egallash, elementar matematik tasavvurlar shakllantiriladi. Koreyslar bolalarning jismonan sog‘lom va baquvvatligiga, shuningdek, musiqa saboqlarining o‘zlashtirilishiga, nutq ravonligiga, milliylik, milliy qadriyatlar, axloq-odob qoidalari, ekologik tarbiya va mentalitetga xos an‘analarni o‘rganish va ularni qadrlashga alohida e‘tibor qaratadilar.

Yuqoridagi talablarni bajarilishini ta‘minlash maqsadida maktabgacha ta‘lim bo‘g‘inidan boshlab bolalarga juda ham katta hajmda uy vazifalari va topshiriqlar beriladi. Ushbulardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim va zarur. Buning uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining “Til va nutq” rivojlanish markazida tashkil etiladigan ta‘limiy jarayonlarni innovatsion didaktik asoslarga ko‘ra olib borish zaruriyati mavjud. Tadqiqotimiz davomida biz maktabgacha ta‘limda bolalarning nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik innovatsiyaning mazmun-mohiyatini quyidagilarda belgiladik:

- ta‘lim-tarbiya jarayonida bolalarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda amaldagi “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidagi beshta soha o‘rtasidagi uzviylik va izchillikni saqlab qolish;
- bolalarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi metodlarni joriy qilish;
- ta‘lim-tarbiya jarayonida bolalarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda maktabgacha ta‘lim tashkilotida asosiy faoliyat o‘yin ekanligini hisobga olish va o‘yin oqali muammolarni yechishga o‘rgatish.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining “Til va nutq” rivojlanish markazida tashkil etiladigan innovatsion faoliyatning an‘anaviy faoliyatdan farqi shundaki, pedagog ustoz rolini o‘ynamaydi, balki ta‘lim-tarbiya jarayonida hamkor rolini o‘ynaydi va u “yonda emas, yuqorida emas, balki birga” pozitsiyasiga amal qiladi.

“Til va nutq” markazini yaratish bir qator talablarga ega:

- “Til va nutq” markazini jihozlashda barcha vositalar guruhning yosh xususiyatlariga to‘liq muvofiq bo‘lishi shart.
- Tarbiyalanuvchilarga “Til va nutq” markazida o‘zlarini qulay his etishlari uchun jozibali sharoit yaratilgan bo‘lishi.
- Markazda xavfsizlik talablariga to‘liq rioya qilish, kitoblar qo‘yiladigan javonning shishali bo‘lmasligi, mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish uchun detalli didaktik o‘yin vositalarining joylashtirilganligi. Barmoq teatri uchun milliy qo‘g‘irchoqlarning joylashtirilganligi. “Til va nutq” markazida quyidagi didaktik vositalar bo‘lishi zarur: – Kitob javoni; – Tarbiyalanuvchilar nutqini oshirishga qaratilgan matnlarga,

rasm, ertak va hikoyalarga boy bo'lgan kichik kutubxona tashkil etish; – Tarbiyalanuvchilar nutq markazlari – artikulyasiya markazlarini rivojlantiruvchi vositalar (oyna, suratli ko'rgazmalar, illyustrativ materiallar); – Didaktik materiallar (rangli kubiklar, harflar yozilgan kubiklar, ertak syujetlari aks etgan kubiklar, magnitli doska); – Nutqda ishtirok etadigan nafas yo'llarini rivojlantiruvchi vositalar (sovunli quvnoq pufakchalar, osilmachiq detallar); – Ko'rgazali vositalar (meva va sabzavotlarning mulyajlari, har xil mavzuga doir ko'rgazmalar).

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, tayyorlov guruhi, tabiiy material, qurilish o'yinlari, ijodiy qobiliyat, qurish-yasash.[2] Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar bilan qurilish materiallari yordamida o'yin va mashg'ulotlar o'tkazishning ahamiyati katta. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasasida qurilish materiallari yordamida o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta o'rin egallaydi. Bolalarning qurilish o'yinlari rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Qurilish o'yinlarida ham bolalar tevarak-atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar. Qurilish o'yinlarining mazmunini bolalarning o'zlari yaratadilar. Bolalar ko'pincha kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, «Quruvchi ishchi» rolini bajaradilar. Bolalarning qurilish o'yinlari qiziqarli ijodiy faoliyatdir. Ular o'z o'yinlarida qurilishlarni transport harakati, kattalarning mehnati haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar. Bunday o'yinlar bolalarda tashabbuskorlikni uyg'otishga, ularni fikr yuritish va harakat faoliyatlarini faollashtirishga keng imkon yaratadi. Mashg'ulot va o'yin vaqtida bolalar bir-birlari bilan turlicha munosabatda bo'ladilar. Ular rollarni o'zaro bo'lishiboladilar, ishlarni bajarishda bir-birlariga yordam beradilar va maslahatlashadilar.

Qurilish o'yinlarini o'ynash natijasida bolalarning kuzatuvchanligi ortadi, texnikaga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi. Bundan tashqari, ular o'yin jarayonida oddiy geometrik shakllarning tuzilishi bilan ham tanishadilar.[7] Qurilish o'yinlarining tarbiyaviy ta'siri shundaki, bunda bolalar aks ettiradigan hodisa va narsalarning g'oyaviy mazmuni o'z aksini topadi.

Qurilish o'yinlari orqali tarbiyachi bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, o'z ishiga javobgarlik hissini tarbiyalab borishga harakat qiladi. Bolalar jamoasini to'g'ri tashkil etishda qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega. Qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar bolalarni maktabga tayyorlash ishini amalga oshirishda ham yordam beradi. Bu o'yin va mashg'ulotlar jarayonida bolalarda diqqatni bir joyga to'plash, oldiga qo'ygan maqsadga chidam va sabot bilan erishish,



olgan bilimi va malakasi asosida ijodiy tashabbuskorlik ko'rsatish xususiyatlari shakllanib boradi. Qurilish haqidagi asosiy bilimni bolalar qurish-yasash mashg'ulotida egallaydilar.[5]

Bolalar qurish-yasash malakalarini endigina egallay boshlaganlarida, ya'ni ikkinchi kichik guruhdan boshlab qurish mashg'ulotlarini o'tishga ruxsat beriladi. Mashg'ulotlarda qurish-yasashga o'rgatish uchun stol ustida o'ynaladigan qurilish to'plarnidan foydalangan ma'qul. Ko'pchilik bolalar bog'chasirining uchastkasida qurib o'ynash uchun yirik qurilish materiallaridan foydalaniladi. Bu materiallar bolalarni ko'pchilik bo'lib qurishga, o'ynashga o'rgatadi. Guruhdagi bolalarning hammasi qurish usullarini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun mashg'ulot vaqtida stollarni har xil joylashtirish mumkin. Qurilishni yakka-yakka bajarayotganda stollarni odatdagi tartibda yoki P harfi shaklida terib qo'yish mumkin, agar bolalar bir qurilishni guruh bo'lib bajarsalar, 2-3 stolni birlashtirib, qator qilib qo'yish kerak. Mashg'ulot vaqtida bolalarga qurilishning eng zarur usullari ko'rsatiladi, shuning uchun mashg'ulot uzoq cho'zilmaligi (10-12 daqiqadan oshmasligi) kerak.[1] Qurish-yasash mashg'ulotlarini o'quv yilining birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, ikkinchi yarmida esa o'yinlar bilan chegaralansa ham bo'ladi. Mashg'ulotning maqsadi qurish-yasashning hamma usullarini ko'rsatishdan iborat: qurilishni qurishda qurish-yasashning hamma usullari ko'rsatishni va harakat bilan tushuntirish, tayyor qurilgan namunani ko'rsatish va unga kirgan elementlarni tahlil qilish. Namuna sifatida qurilish materiallaridan nimalar yasash mumkinligini ko'rsatuvchi tayyor qurilishdan foydalanish. Bolalar bino, inshootni qurishni bilib olishlari uchun (baland poydevorning ustini qanday bekitish, bir detalni qanday qilib boshqasi bilan almashtirish, tekislikni qanday kengaytirish va shu kabilar) qurilishning ayrim detallarini ko'rsatish. Tarbiyachi tomonidan bajarilayotgan qurilishning ayrim qismini davom ettirishni bolalarga taklif qilish. Quriladigan obyekt haqida tushuncha berish, masalan, qurilishning hajmini (katta-kichikligini) aniqlash, bunda qurilishning o'yinchoqlarga mos bo'lishini aytish. Bolalarni o'zlari ijod qilib qurishga o'rgatish uchun zarur sharoitlar va ashyolar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tayyorlov guruhida tabiiy material va qog'ozdan qurish-yasashga o'rgatishning vazifalari. Mashg'ulotda bolalar qog'oz bilan ishlash ko'nikma va malakasini egallab boradilar: qog'ozni turlicha buklash, diagonal bo'ylab bo'lish, tayyor andazani buklash shablon bo'yicha detallarni qirqish va hokazo. Tayyorlov guruhida bolalar turli narsalar yasaydilar. Karton yordamida o'yinchoqlar tayyorlanadi (petrushka balalayka bilan, qo'lini qimirlatayotgan quyon...). Korobkadan, karton va qog'ozdan avtomashina, yuk krani, traktor, uy qurish mumkin. Qog'oz, karton, tabiiy materialdan (ildiz, tayoqcha va



boshqalar) suvda o'ynaladigan o'yinchoqlar (kemacha, barja) qurish mumkin. Tarbiyachi bu o'yinchoqlarning nima uchun qo'llanilishini bolalarga o'rgatadi. Tabiiy materiallardan narsa yasash mashg'ulotida tarbiyachi bolalarga shox-shabba, shishka, urug'lardan foydalanib, bu figuralarning alohida qismlarini turli usulda birlashtirishni (yelim, sim, gugurt cho'pi, plastilin bilan) o'rgatadi. Bolalar turli shakllarni odam, hayvonlarni, qush, baliq, kapalaklarni, archaning urug'i, yong'oq po'stidan, o'z o'ylaganlari asosida, tarbiyachining topshirig'i bo'yicha yasaydilar. Bolalarga yana shoxlar, ildizlardan tanish bo'lgan ertak qahramonlariga o'xshashlarini topish ham o'rgatib boriladi. Bu faoliyat orqali bolalarda fantaziya, tasavvurlari rivojlanib boradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. – Toshkent. – 2020. 3. Turdiyeva M.J., Olimov K. T. Game Technologies As An Innovative Type Of StudentCentered Education. „ The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T.
2. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: «Ilm ziyu».
3. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. T.: «Fan va texnologiya», 2010
4. Hasanboyeva O.U va boshqalar. Oila pedagogikasi. «Darslik T:- «Aloqachi» 2007.
5. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. V.I.Loginova, P.G.Samorukovalar tahriri ostida. T: O'qituvchi, 1991.